

BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA HARAKATLI O'YINLARDAN  
FOYDALANISH ORQALI O'QUVCHILARNING MATEMATIK TAFAKKURINI  
OSHIRISH

Sulaymanova Nigora

Guliston davlat pedagogika instituti stajyor-o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1463118>

*Annotation. Ushbu maqola boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning iqtidorini oshirish uchun harakatli o'yinlardan foydalanish metodikasi va samarasi, harakatli o'yinlardan dars davomida foydalanishning ta'lif sifatini oshirishdagi o'rni va ahamiyati, shuningdek muallif tomonidan amaliyotda qo'llanilib, yaxshi samaraga erishgan "Sonlarni qo'shish va ayirish" harakatli o'yini, uning metodikasi va samarasi haqida.*

*Kalit so'zlar:* Harakatli o'yinlar, "Sonlarni qo'shish va ayirish", samaradorlik, ta'lif tizimi.

**IMPROVING STUDENTS' MATHEMATICAL THINKING THROUGH THE USE OF  
ACTIVATED GAMES IN PRIMARY GRADE MATHEMATICS LESSONS**

*Abstract. This article describes the methodology and effectiveness of using action games to improve students' abilities in elementary mathematics classes, the role and importance of the use of moving games in the classroom to improve the quality of education, as well as the author's "Numbers swelling and multiplication" about the game, its methodology and effectiveness.*

**Keywords:** Action games, "Addition and subtraction of numbers", efficiency, education system.

**УЛУЧШЕНИЕ МАТЕМАТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ ПУТЕМ  
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ АКТИВИРОВАННЫХ ИГР НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В  
НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

*Аннотация. В данной статье описаны методика и эффективность использования подвижных игр для совершенствования способностей учащихся на уроках начальной математики, роль и важность использования движущихся игр на уроках для повышения качества обучения, а также авторские «Числа» набухания и умножения ». Об игре, ее методологии и эффективности.*

**Ключевые слова:** Игры-действия, «Сложение и вычитание чисел», эффективность, система обучения.

Boshlang'ich sinf matematika darslari matematik bilimlarning fundamental asosini tashkil etadi. Shu sababli ham boshlang'ich sinf matematika darslarining samaradorligining yuqori bo'lishi har qanday mamlakat ta'lif tizimida ustuvor vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda dars davomida turli xil interfaol metodlar keng qo'llanilmoqda. Ular darslarning samaradorligi oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda shuni aytish joizki, o'quvchilarining diqqatini darsga qaratishda, mavzularni yaxshi o'zlashtirish uchun dars davomida turli xil jismoniy harakatlardan iborat didaktik o'yinlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Rivojlangan davlatlar tajribasidan shu ma'lum-ki, dars bu-aniq belgilangan vaqtida, muqim joyda o'tkaziladigan dars mashg'uloti.

Darsni qay usulda tashkil etishni o'qituvchi mavjud sharoitlardan kelib chiqqan holda tanlashi mumkin.

Shu navbatda o'yin o'zi nima ekaniga izoh berish lozim. O'yin — bolalarning ongi, qalbiga singib ketgan faoliyat hisoblanadi. Ularning bu faoliyati, o'yin turlariga qarab, obyektiv voqelikni, hayotni muayyan darajada o'zida aks ettiradi. O'yin sinfda o'tilgan o'quv faoliyatining ma'lum darajada davomi va mustahkamlanishidir. Tajribalar shuni isbotlanganki, o'yin kichik maktab yoshidagi o'quvchi bolalarning zarur hayotiy ehtiyojidir.

Didaktik o'yin — ta'lif beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiylar maqsadlarga erishuvga, ya'ni o'tilgan o'quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi.


Boshlangich sinf matematikda kursida o'quvchilarga sanoqni o'rgatish va dastlabki arifmetik amallarini bajarish davomida "Sonlarni qo'shish va ayirish" didaktik o'yinidan foydalanish yaxshi samara beradi. O'yinning maqsadi-arifmetik amallar haqidagi bilimlarni takrorlash va mustahkamlashdir. Bunda qo'shiluvchi yoki ayiriluvchi sonni o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda tanlaydi. O'yin davomida har bir o'quvchining javobi tinglanadi.

Ta'limgagi didaktik o'yinlarning asosiy kamchiligi o'zlashtirishi o'rta va past darajada bo'lgan o'quvchilarining harakatli o'yinlarda ham ishtiroki past darajada ekanligidir. Shuning uchun ham o'yin 2 bosqichda tashkil etiladi. 2-bosqichi aynan o'zlashtirishi o'rta va past darajada bo'lgan o'quvchilar uchun tashkil etiladi. Arifmetik amallarni qo'llash borasidagi bilimlarini oshiradi va mustahkamlaydi.

### O'yinning qisqa ta'rifi quyidagicha:

O'yin uchun maxsus belgilangan joy tanlab olinadi. Oq'uvchilar joylashadigan joy "Yashil yo'lakcha" yashil rangga, "Ogohlik maydonchasi" esa sariq rangga bo'yaladi. O'quvchilar "Bilimlar bayroqchasi" dan foydalanib, bir-birlariga to'g'ri javob berganlarida o'yin davom etadi.

1-bosqich: Guruh o'quvchilari ikkiga bo'linadi, har bir guruh a'zolari aylana shaklida "Yashil yo'lakcha"ga turishadi va qo'llariga "Bilimlar bayroqchasi" ni olishadi. (1-rasm)



1-rasm. "Sonlarni qo'shish va ayirish" harakatli o'yinining 1-bosqichi.

Guruhlarning har ikkisiga alohida shart aytildi. Birinchi guruhga: "1 sonini 30 sonigacha 2 birlik orttiring!" deb, ikkinchi guruhga esa: "30 sonini 1 sonigacha 2 birlik kamaytiring!" deb topshiriq beriladi. To'g'ri javob berilgan paytda o'quvchilar qo'llaridagi bayroqchani keyingi o'quvchiga beradilar, agar o'quvchi noto'g'ri javob bersa aylana markazidagi ogohlik maydonchasiga o'tadilar.

O'yin quyidagicha davom etadi:


Birinchi guruhning birinchi o'quvchisi: "1 sonini 2 birlik orttirsak 3 soni hosil bo'ladi" deb javob beradi va qo'lidagi bayroqchani navbatdagi o'quvchiga beradi. Ikkinchi bola esa o'yinni davom ettiradi: "3 sonini 2 birlik orttirsak 5 soni hosil bo'ladi", o'yin shunday 29 soni hosil bo'lunga davom etadi.

Ikkinchi guruhning birinchi o'quvchisi o'yinni boshlaydi: "30 sonini 2 birlik kamaytirsak 28 soni hosil bo'ladi" deb javob beradi va qo'lidagi "Bilimlar bayroqchasi" ni navbatdagi o'quvchiga beradi. Ikkinchi o'quvchi ham javob beradi: "28 sonini 2 birlik kamaytirsak 26 soni hosil bo'ladi" va bayroqchani navbatdagi o'quvchiga uzatadi. Shunday qilib o'yin 2 soni hosil bo'lunga qadar davom etadi (o'yin shartida 30 sonini 1 sonigacha kamaytirish belgilangan edi).

O'yin oxirida eng ko'p a'zosi qolgan guruh g'olib sanaladi va rag'batlantiriladi. Shu bilan o'yinining birinchi bosqichi nihoyasiga yetadi.

2-bosqich: Endi “Ogohlik maydonchasi”dan joy olgan o’quvchilar uchun o’yinning ikkinchi bosqichi boshlanadi, boshqa bolalar esa biroz tanaffus qilishadi.

Ogohlik maydonchasidagi bolalar bir qator qilib safga turishadi. Va 1 sonida 30 sonigacha sonlarni aytib safdan shuncha qadam oldinga chiqishadi. (2-rasm)



2-rasm. “Sonlarni qo’shish va ayirish” harakatli o’yinining 2-bosqichi.

Masalan, 1 degan o’quvchi bir qadam, 2 degan o’quvchi 2 qadam, 3 degan o’quvchi 3 qadam oldinga chiqadi. Shu bilan o’quvchilar sonlar ketma-ketligini va sonlarni birlikka qanday orttirish mumkinligini yodga oladilar.

So’ngra ular aylana shaklida turib qo’llariga “Bilimlar bayroqchasi”ni olishadi va o’yinni qaytadan tashkil etishadi.

“Sonlarni qo’shish va ayirish” harakatli o’yini shu shart bo’yicha “Sonlarni ko’paytirish va bo’lish” shaklida ham tashkil etilishi mumkin. Bunda endi o’quvchilarning “Ko’paytirish jadvali”ni qay darajada yod olishganini va sonlarni ongli ko’paytirib, bo’lish ko’nikmasi nazoratdan o’tadi. O’yinning tez va tartibli tashkil etilishini o’qituvchi nazorat qilishi va o’quvchilar javobini nazorat qilishni o’quvchilarning o’ziga “O’zingni o’zing bahola!” shaklida tashkil etishi ham yoki o’qituvchining o’zi nazorat qilishi ham mumkin.

Bu kabi harakatli o’yinlar asosiy dars vaqtidan keyin tashkil etilishi ham mumkin. Bu kabi o’yinlarning takror-takror tashkil etilishi o’quvchilarda arifmetik amallarni avtomatik ravishda bajarishni shakllantiradi.

## REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M Erkin va faravon demokratik O'zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz. - T.: "O'zbekiston", 2017, 14-15 bet
2. Abdukarimov H., O.Suvonov. Umumiy pedagogika: texnologiya va amaliyot. -T.: o'quv-metodik qo'llanma, 2012
3. Abdullaev, D., Shukhratovna, D. L., Rasulovna, J. O., Umirzakovich, J. U., & Staroverova, O. V. (2024). Examining Local Item Dependence in a Cloze Test with the Rasch Model. International Journal of Language Testing, 14(1), 75-81.
4. Ganiyeva, M. (2021). Effective Methods of TRIZ TECHNOLOGY in the Formation of Inventive Abilities of Primary School Pupils. International Journal on Integrated Education, 4(9), 161-163.
5. Aynisa, M. (2018). Improvement of the pedagogical mechanisms of the family and educational institutions in the development of the spiritual culture of adolescents of social and legal risk groups. Проблемы педагогики, (1 (33)), 5-7.